Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320721

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

1. O‘zbekiston Prezidenti Matbuot xizmati - O‘zbekistonning investitsion siyosati va 2024 yilgi iqtisodiy yutuqlari haqida rasmiy ma'lumotlar va hisobotlar.

2. Investitsiya va iqtisodiy diplomatiya tahlillari - Invexi.org sayti, 2024 yilda investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy diplomatiya haqida yangiliklar.

3. O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi - 2024 yilda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha statistika va iqtisodiy ma'lumotlar.

4. Xalqaro moliya institutlari - Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi kabi tashkilotlarning O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalar va investitsiya tahlillari.

5. Investitsiya forumlari va tahlillar - Xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha konferensiyalar va tahlillar.

TURIZM SALOHIYATI TUSHUNCHASI: NAZARIY YONDASHUVLAR, ILMIY TAHLILLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Bekmurodova F. A
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, PhD
Maxsumova O‘. D.
Xalqaro Islom akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm salohiyati tushunchasining nazariy asoslari, tarixiy rivojlanishi va zamonaviy yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Xalqaro turistik tashriflar statistikasi va Jahon Turizm Tashkiloti ma’lumotlari asosida turizmning pandemiyadan keyingi tiklanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, turizm salohiyatini rivojlantirish uchun transport tizimi, infratuzilma va marketing strategiyalarining ahamiyati muhokama qilinadi. Maqolada turizm salohiyati nafaqat iqtisodiy rivojlanish vositasi, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash omili sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: turizm salohiyati, barqaror rivojlanish, pandemiyadan keyingi tiklanish, marketing, infratuzilma.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы понятия туристического потенциала, его историческое развитие и современные подходы. На основе статистики международных туристических прибытий и данных Всемирной туристической организации (UNWTO) проводится анализ восстановления туризма после пандемии. Также обсуждается важность транспортной системы, инфраструктуры и маркетинговых стратегий для развития туристического потенциала. В статье подчеркивается, что туристический потенциал является не только инструментом экономического роста, но и фактором экологической и социальной устойчивости.

Ключевые слова. туристический потенциал, устойчивое развитие, восстановление после пандемии, маркетинг, инфраструктура.

Annotation. This article examines the theoretical foundations, historical development, and contemporary approaches to the concept of tourism potential. Based on international tourist arrivals statistics and UNWTO data, the post-pandemic recovery of tourism is analyzed. Additionally, the importance of transport systems, infrastructure, and marketing strategies for enhancing tourism potential is discussed. The article emphasizes that tourism potential is not only an economic growth tool but also a driver of ecological and social sustainability.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Bekmurodova F. A, Maxsumova O‘. D (2024). Turizm salohiyati tushunchasi: nazariy yondashuvlar, ilmiy tahlillar va rivojlanish istiqbollari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320721

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Keywords. tourism potential, sustainable development, post-pandemic recovery, marketing, infrastructure.

Jahon Turizm Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda xalqaro turistik tashriflar soni 1,3 milliardga yetib, 2022-yilga nisbatan 33% o‘sdi va pandemiyadan oldingi darajaning 89% ini tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar turizm sohasining pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonida ekanligini va global miqyosda sayohatlarga bo‘lgan talabning ortib borayotganini ko‘rsatadi. 2023-yilda turizm eksport daromadlari 1,8 trillion AQSh dollariga yetib, pandemiyadan oldingi darajaga deyarli tenglashdi. Bu esa turizmning global iqtisodiyotdagi muhim o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Mintaqalar bo‘yicha qaralganda, Yaqin Sharq 2023-yilda pandemiyadan oldingi darajadan 20% yuqori ko‘rsatkichga erishib, eng tez tiklanayotgan mintaqa bo‘ldi. Yevropa esa 94% ko‘rsatkich bilan ikkinchi o‘rinda turadi. Ushbu statistik ma’lumotlar turizm sohasining global iqtisodiyotdagi ahamiyatini va uning pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonini yaqqol namoyon etadi.

Turizm salohiyati – bu hududning turistik rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillarni o‘z ichiga olgan murakkab tushunchadir. U joyning tabiiy va madaniy resurslari, infratuzilmasi, bozor talabini qondirish imkoniyati va boshqaruv qobiliyatlari bilan aniqlanadi. Turizm salohiyati nafaqat iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil, balki mahalliy aholi farovonligini oshirish, madaniy merosni saqlash va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni ta’minlash vositasi hisoblanadi.

Turizm salohiyati tushunchasi uzoq tarixga ega bo‘lib, ilmiy muhokamalarda qator yondashuvlar va ta’riflar shakllangan. Dastlab, Walter Hunziker va Kurt Krapf tomonidan turizmning asosiy tamoyillari aniqlangan bo‘lsa, keyinchalik Richard Butler o‘zining “Turizm hududi evolyutsiya sikli” modeli bilan bu tushunchani yanada kengaytirdi. Zamonaviy davrda bu tushuncha barqarorlik, marketing va innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oluvchi integratsiyalashgan tushuncha sifatida qaralmoqda. Quyidagi 1-jadvalda turizm salohiyati tushunchasiga oid asosiy ta’riflar, ular mualliflar tomonidan qachon va qanday ma’noda qo‘llanganligi xronologik tartibda keltirilgan.

1-jadval.

Turizm salohiyati tushunchasining ilmiy rivojlanishi: ta’riflar va xronologik tahlil

Yillar Mualliflar Turizm salohiyati tushunchasi ta’rifi

1942 Hunziker va Krapf Turizm salohiyati safar va yashash natijasida yuzaga keladigan hodisalar va munosabatlarning yig‘indisi sifatida ta’riflanadi. Doimiy yashash bilan bog‘liq emas.

1980 Butler Turizm salohiyati turistik hududning rivojlanish sikli (TALC modeli) bosqichlariga bog‘liq bo‘lib, kashfiyotdan to tanazzulgacha o‘zgaradi.

1985 Murphy Mahalliy hamjamiyat ishtiroki turizm salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ishtirokchilik turizmi rivojlanishini ta’minlaydi.

1991 Inskeep Turizm salohiyati tabiiy va madaniy resurslar, infratuzilma hamda bozor talabiga bog‘liq bo‘lib, barqarorlik bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak.

1994 Smith Turizm salohiyati moddiy va nomoddiy elementlarning kombinatsiyasi orqali shakllangan joyning jozibadorligi bilan belgilanadi.

1994 Gunn Turizm salohiyatini rivojlantirishda resurslarni baholash va barqaror rivojlanishga qaratilgan strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega.

1996 Richards Madaniy turizm aktivlari joyning turizm salohiyatini oshirishda muhim bo‘lib, noyob tajribalarni taqdim etadi.

1997 Pearce Turizm salohiyati hududning rivojlanish va innovatsiyaga moslashuvchanlik qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, hududiy rivojlanishga hissa qo‘shadi.

1998 Middleton va Hawkins Barqaror marketing amaliyotlari turizm salohiyatini ro‘yobga chiqarish va saqlash uchun zarurdir.

1999 Crouch va Ritchie Turizm salohiyati joyning solishtirma va raqobatbardosh afzalliklari orqali shakllanadi.

2000 Buhalis Strategik marketing va texnologik innovatsiyalar joyning turizm salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

2000 Prideaux Transport tizimi turizm salohiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa kirish imkoniyatlari va turistlarning qoniqish darajasiga.

2002 Sharpley va Telfer Turizm salohiyati samarali rivojlanish strategiyalari bilan bog‘liq bo‘lsa, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

2003 Dwyer va Kim Turizm salohiyati resurslar, joy boshqaruvi va mahalliy sharoitlar bilan belgilanadi.

2003 Mason Barqaror boshqaruv turizm salohiyatini saqlash uchun muhim bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta’sirlarni muvozanatlashtiradi.

2006 Weaver va Lawton Turizm salohiyati resurslar, bozor dinamikasi va boshqaruv strategiyalarini baholash orqali rivojlantiriladi.

2008 Hall Turizm salohiyati siyosiy-ijtimoiy omillar va rivojlanish maqsadlariga moslashtirilgan integratsiyalashgan rejalashtirish orqali shakllanadi.

2008 Cooper va boshqalar Resurslar va bozor dinamikasi joyning turizm salohiyatini aniqlovchi asosiy omillardir.

2009 Goeldner va Ritchie Turizm salohiyati joyning jozibadorligini belgilovchi diqqatga sazovor joylar, infratuzilma va bozor talabining o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi.

2014 Hall va Page Geografik va ekologik omillar turizm salohiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va joyning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

1-jadvalda turizm salohiyati tushunchasi bo‘yicha olimlarning ta’riflari va ularning mazmuni xronologik tartibda ko‘rsatilgan. Har bir ta’rif mualliflar tomonidan tushunchaga qanday yondashilganini aks ettiradi: dastlabki ta’riflar turizmni iqtisodiy munosabatlarning yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqqan bo‘lsa, keyingi ta’riflarda hamjamiyat ishtiroki, hudud resurslari va barqarorlik tamoyillari muhim o‘rin egallagan. Keyinchalik, turizm salohiyati iqtisodiy foyda keltiruvchi omil sifatida emas, balki ekologik muvozanatni ta’minlovchi vosita sifatida ham qarala boshlandi. Zamonaviy ta’riflarda turizm salohiyatini shakllantirishda marketing, texnologiya va innovatsiyalarning ahamiyati ta’kidlangan.

Ta’riflarning xronologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, turizm salohiyati tushunchasi zamon talablariga mos ravishda o‘zgarib bormoqda:

- Bosqichma-bosqich kengayish - dastlab iqtisodiy jihatlarga urg‘u berilgan bo‘lsa, bugungi kunda ekologik va ijtimoiy omillar ham muhim o‘rin tutadi.
- Barqaror rivojlanish tamoyillari - so‘nggi yillarda turizm salohiyati barqarorlik va ekologik muvozanatni saqlash bilan bog‘liq ravishda ko‘rib chiqilmoqda.
- Innovatsion yondashuv - raqamli texnologiyalar, marketing strategiyalari va boshqa innovatsion yondashuvlar turizm salohiyatini oshirish uchun asosiy vositalar sifatida qaralmoqda.

Yuqoridagi fikrlarni birlashtirib turizm salohiyatiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “turizm salohiyati – bu ma’lum bir hududning turistik faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlarini belgilovchi murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u tabiiy, madaniy, iqtisodiy va infratuzilmaviy resurslar bilan bog‘liq. Ushbu salohiyat hududning geografik joylashuvi, tarixiy-madaniy merosi, tabiiy go‘zalliklari, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari bilan aniqlanadi. Turizm salohiyati mahalliy va xalqaro turistlarni jalb qilish

qobiliyatiga, shuningdek, turistik xizmatlarni ko‘rsatish va ulardan foyda olish imkoniyatlariga tayanadi”.

Turizm salohiyatini rivojlantirish uchun transport tizimi, bozor talabiga javob beradigan infratuzilma, diqqatga sazovor joylar va noyob turistik tajribalar muhim ahamiyatga ega. Richard Butler ta’kidlaganidek, turizm salohiyati hududning rivojlanish sikli davomida kashfiyotdan tanazzulgacha o‘zgaradi. Edward Inskeep esa tabiiy va madaniy resurslarning barqarorlik bilan uyg‘unlashgan holda boshqarilishi lozimligini ta’kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa strategik marketing va texnologik innovatsiyalar turizm salohiyatini oshirishning muhim vositalari sifatida ko‘rib chiqiladi.

Turizm salohiyatining barqaror rivojlanishi uchun siyosiy-ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda integratsiyalashgan rejalashtirish talab qilinadi. Bunda mahalliy hamjamiyatning ishtiroki, ekologik muvozanatni ta’minlash, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga qo‘shiladigan hissani oshirish muhimdir. Turizm salohiyati shunchaki tabiiy va madaniy resurslarning yig‘indisi emas, balki ularni samarali boshqarish va turistlarga noyob tajribalar taqdim etish orqali barqaror iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga erishish vositasidir.

Xulosa qilib aytganda, turizm salohiyati global va mahalliy miqyosda o‘sish imkoniyatlarini yaratadigan strategik vositadir. Uni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar, barqaror boshqaruv usullari va mahalliy hamjamiyat ishtirokini ta’minlash muhim. O‘zbekiston misolida turizm salohiyatining iqtisodiy va ijtimoiy foydalari, shuningdek, uni amalga oshirishdagi mavjud imkoniyatlar va muammolar tahlil qilinadi. Bu esa milliy iqtisodiyotda turizmning barqaror rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Hunziker, W., & Krapf, K. (1942). Grundriss der Allgemeinen Fremdenverkehrslehre. Polygraphischer Verlag AG.
2. Butler, R. W. (1980). "The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources." The Canadian Geographer, 24(1), 5-12.
3. Murphy, P. E. (1985). Tourism: A Community Approach. Routledge.
4. Inskeep, E. (1991). Tourism Planning: An Integrated and Sustainable Development Approach. Van Nostrand Reinhold.
5. Smith, S. L. J. (1994). "The Tourism Product." Annals of Tourism Research, 21(3), 582-595.
6. Gunn, C. A. (1994). Tourism Planning: Basics, Concepts, Cases. Taylor & Francis.
7. Richards, G. (1996). Cultural Tourism in Europe. CABI Publishing.
8. Pearce, D. G. (1997). "Tourism and Regional Development: A Genetic Approach." Annals of Tourism Research, 24(2), 337-354.
9. Middleton, V. T. C., & Hawkins, R. (1998). Sustainable Tourism: A Marketing Perspective. Butterworth-Heinemann.
10. Crouch, G. I., & Ritchie, J. R. B. (1999). "Tourism, Competitiveness, and Societal Prosperity." Journal of Business Research, 44(3), 137-152.
11. Buhalis, D. (2000). "Marketing the Competitive Destination of the Future." Tourism Management, 21(1), 97-116.
12. Prideaux, B. (2000). "The Role of the Transport System in Destination Development." Tourism Management, 21(1), 53-63.
13. Sharpley, R., & Telfer, D. J. (2002). Tourism and Development: Concepts and Issues. Channel View Publications.
14. Dwyer, L., & Kim, C. (2003). "Destination Competitiveness: Determinants and Indicators." Current Issues in Tourism, 6(5), 369-414.

15. Mason, P. (2003). Tourism Impacts, Planning and Management. Butterworth-Heinemann.
16. Weaver, D., & Lawton, L. (2006). Tourism Management. Wiley.
17. Hall, C. M. (2008). Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships. Pearson Education.
18. Cooper, C., Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., & Wanhill, S. (2008). Tourism: Principles and Practice. Pearson Education.
19. Goeldner, C. R., & Ritchie, J. R. B. (2009). Tourism: Principles, Practices, Philosophies. Wiley.
20. Hall, C. M., & Page, S. J. (2014). The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place, and Space. Routledge.

AGRAR SOHADA TAKROR ISHLAB CHIQARISHDA INVESTITSIYADAN SAMARALI FOYDALANISH

Zaripov Azamat Djurayevich
Guliston davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasi o`qituvchi, mustaqil tadqiqotchi, Guliston, O‘zbekiston
zaripovazamat461@gmail.com
Azimova Mohida, Umurzakova Shaxzoda, Mamadaliyeva Gulasal, Ravufov Behruz
Guliston Davlat Universiteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu tezisda qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishda investitsiyadan samarali foydalanish haqida ko‘rib chiqiladi. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, iqtisodiy rivojlanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun investitsiyalardan oqilona foydalanish muhimdir. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun bir qator asosiy jihatlar mavjud. Maqolada investitsiyalarni jalb qilishning turli usullari, jumladan davlat budjeti, xususiy sektor va xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida investitsiyalardan samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan strategiyalar, masalan, suv resurslaridan tejamkor foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va fermerlar o‘rtasida kooperatsiyani rivojlantirish keltirilgan.Natijada, maqola qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishni rivojlantirish va investitsiyalarni samarali boshqarish orqali iqtisodiy barqarorlikni oshirishga qaratilgan tavsiyalarni taqdim etadi. Ushbu tadqiqot qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar va siyosatchilar uchun foydali manba bo‘lishi kutilmoqda.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, takror ishlab chiqarish, investitsiya, sug‘orish tizimi investitsiya.

Kirish: Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim sektori bo‘lib, u nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi, balki ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Takror ishlab chiqarish jarayoni qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishni doimiy ravishda kengaytirish va yangilashni anglatadi. Bu jarayon aholi sonining o‘sishi, iste'mol talabining ortishi va global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Ular orqali yangi texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash mumkin. Biroq, investitsiyalardan samarali foydalanish uchun maqsadli strategiyalarni